

BOSHQARUV TARTIBIGA QARSHI SODIR ETILADIGAN KORRUPSIYAGA OID JINOYATLARGA QARSHI JINOIY-HUQUQIY KURASH



Nurmuhammedova Go'zalxon Bahodirovna

yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan korrupsiyaga oid jinoyatlarning huquqiy tabiatini chuqur tahlil qilish, ularning tarkibiy belgilarini aniqlash va jinoiy-huquqiy kurash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallif korrupsiya tushunchasining xalqaro va milliy huquqiy talqinlarini solishtirib, "xizmat mavqei" va "mansab vakolatlari" o'rtasidagi farqni hamda amaliyotda uchrayotgan huquqiy noaniqliklarni ochib bergan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, boshqaruv tartibi, jinoiy-huquqiy kurash, xizmat mavqei, mansab vakolatlari, manfaatdorlik, g'arazgo'ylik, poraxo'rlik, profilaktika, jinoiy javobgarlik, BMT Konvensiyasi, xalqaro standartlar, huquqiy aniqlik, sud amaliyoti, javobgarlik differensiyasi.

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ БОРЬБА С КОРРУПЦИОННЫМИ ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ ПРОТИВ ПОРЯДКА УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ уголовно-правовой природы коррупционных преступлений против порядка управления, выявлены их структурные признаки и предложены пути совершенствования механизмов противодействия. Автор рассматривает международные и национальные подходы к определению понятия «коррупция», раскрывает различия между категориями «служебное положение» и «должностные полномочия», а также указывает на существующие правовые неопределённости в практике.

Ключевые слова: коррупция, порядок управления, уголовно-правовая борьба, служебное положение, должностные полномочия, заинтересованность, корысть, взяточничество, профилактика, уголовная ответственность, Конвенция ООН, международные стандарты, правовая определённость, судебная практика, дифференциация ответственности.

CRIMINAL-LEGAL MEASURES AGAINST CORRUPTION-RELATED CRIMES AGAINST THE ADMINISTRATIVE ORDER

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the criminal-legal nature of corruption-related offenses against the administrative order, identifying their structural elements and proposing improvements to counteraction mechanisms. The author examines both international and national interpretations of the concept of "corruption," clarifies the distinctions between "official position" and "official powers," and highlights existing legal ambiguities in practice.

Keywords: corruption, administrative order, criminal-legal counteraction, official position, official powers, personal interest, mercenary motive, bribery, prevention, criminal liability, UN Convention, international standards, legal clarity, judicial practice, differentiation of liability

Korrupsiya – bu davlatning iqtisodiy barqarorligiga va boshqaruv institutsional tizimiga jiddiy xavf soluvchi ko'p qirrali, ko'p omilli ijtimoiy-huquqiy hodisa. Jahon hamjamiyati tomonidan umume'tirof etilgan fikr shundan iboratki, korrupsiya davlat boshqaruvi samaradorligi, ochiqligi va javobgarlik

tizimlarini izdan chiqaradi, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Ayniqsa, boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan korrupsiyaviy jinoyatlar davlat organlarida qonuniylik, xolislik va shaffoflik prinsiplarini buzish orqali ushbu jarayonning eng xavfli ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jinoiy-huquqiy vositalar orqali boshqaruv tartibiga qarshi korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashish masalasi bugungi kunda huquqiy, institutsional va ilmiy yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab etmoqda.

Ushbu siyosat doirasida jinoyat qonunchiligini isloh qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolat va javobgarlik chegaralarini aniq belgilash, profilaktik va jazo choralari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan korrupsiyaviy jinoyatlarga nisbatan jinoiy-huquqiy ta'sir choralari ishlab chiqish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish bugungi kunda ilmiy va amaliy yechimini talab qilayotgan muhim masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarga alohida bob (205–209-moddalar) ajratilgan bo'lib, uning 210–211-moddalarida pora olish va berish kabi korrupsion faoliyat shakllari huquqiy jihatdan tartibga solingan. Biroq, amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim normalarni qo'llashda huquqni qo'llovchi organlar uchun aniqlik yetishmasligi, ayrim tushunchalarning nisbiyligi turli talqinlarga olib kelmoqda. Jumladan, mansabdor shaxsning "huquqlar va manfaatlar uchun harakat qilish", "jiddiy ziyon", "jiddiy zarar" kabi tushunchasining chegaralari aniq belgilanmaganligi amaliyotda huquqiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasining 1-qismi 4-bandida "Jinoyat kodeksida qo'llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta'rif berish va yagona shaklda qo'llash orqali takomillashtirish" [1] masalasi belgilangan.

Bundan tashqari, BMTning 2003-yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi [2]

talablari bilan uyg'un holda, milliy jinoiy-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Jinoyatlar tarkibini aniq belgilash, huquqiy klassifikatsiyani optimalashtirish hamda ijtimoiy xavf darajasiga muvofiq ravishda individuallashtirilgan javobgarlik choralari joriy etish ushbu sohadagi islohotlarning muhim yo'nalishidir.

Jinoiy-huquqiy vositalarni korrupsiyaga qarshi kurashishning faqat jazo qo'llash vositasi emas, balki profilaktik va tarbiyaviy ta'sir etuvchi mexanizmi sifatida o'rganish zarur. Ushbu vositalar qatoriga jinoyat tarkiblarining aniq va xolis ta'rif, jazo turlari va miqdorining muvozanatli belgilanishi, jazolarni differentsiatsiya qilish va individuallashtirish, jazoni yengillashtirish va og'irlashtirish asoslari, amnistiya va shartli ozod qilish shartlari ham kiradi. Huquqni qo'llash amaliyotida qonuniylik, xolislik va qonunga itoat prinsiplarini ta'minlash ushbu vositalarning samaradorligini oshiradi.

Dunyo miqyosida korrupsiyaga qarshi kurashda umumiy siljish kuzatilmagan: "Transparency International" ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yildan 2024-yilgacha faqat 32 ta davlat korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirishga erishgan, 148 ta davlatda esa vaziyat yo o'zgarib qolgan, yoki yomonlashgan. 2024-yil holatiga ko'ra, davlatlarning uchdan ikki qismi SPI baholarida 50 balldan past natija olgan, bu esa aksariyat mamlakatlarda jamoat sektorida korrupsiya jiddiy muammo ekanligini anglatadi [3]. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari ham korrupsiyaning keng tarqalgani va uning oqibatlari jiddiy ekanini tasdiqlaydi. Masalan, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODS) ma'lumotiga ko'ra, Afrika qit'asi mamlakatlari korrupsiya tufayli har yili o'z yalpi mahsulotining taxminan 25%ni yo'qotmoqda, bu esa investitsiyalar oqimini sekinlashtirib, ijtimoiy tengsizlikni oshiradigan omildir [4]. Boshqa tahlillarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar har yili korrupsiya, poraxo'rlik, o'g'irlik va soliqdan bo'yin tovlash natijasida taxminan 1,26 trln AQSH dollari yo'qotmoqda, bu

mablag' 1,4 milliarddan ziyod insonlarni qash-shoqlikdan chiqarishga yetar edi [5]. Korrupsiya-ning keng tarqalishi hukumatlarning barqarorligi va global taraqqiyotga tahdid solib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (xususan, tinchlik va adolatga doir 16-maqсад)ga erishishni qiyinlashtirmoqda.

Jahonda 2014–2024-yillar davomida korrupsiyaga qarshi kurash va uni jilovlash borasida muayyan chora-tadbirlar ko'rilgan bo'lsada, umumiy natijalar hali ham qoniqarsiz bo'lib qolmoqda. Korrupsiya hali ham keng tarqalgan global muammo sifatida saqlanib, uning ijtimoiy xavfliligi juda yuqori darajada ekani ko'zga tashlanmoqda. Korrupsiya jamiyatning ma'naviy negizlarini, davlat boshqaruvi tizimini va iqtisodiy taraqqiyotni izdan chiqaradigan omil ekanligi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida yana bir bor tasdiqlandi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borish va boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash – davlatlarning barqaror rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyati farovonligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega vazifa.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2023-yilda korrupsiya uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar soni pasaygan: 6535 nafar shaxs (bu 2022-yildagi 7414 nafarga nisbatan 12% kam) [6]. 2023-yilda sudlarda 4128 ta korrupsiyaviy jinoyat ishi bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan, bu ham 2022-yilga nisbatan 11% kamdir. Davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan zarar 2022-yildagi 2,04 trln so'mdan 1,4 trln so'mga tushgan, ya'ni 29% kamaygan. Bu kamayishga asosan 2022-yilda ochilgan ulkan ishlar (masalan, bir necha trillionlik soliq xavflari) hal bo'lgani, 2023-yilda esa profilaktika choralari samara bergani sabab sifatida keltirilmoqda. 2023-yilda yetkazilgan zararning 51% (745 mlrd so'mi) undirilgan [6]. Shu yilda qayd etilgan yana bir fakt – pora predmeti sifatida musodara qilingan qimmatliklar: 2022–2023-yillarda davlat foydasiga 7,1 mlrd so'm, 345 ming AQSH dollari va 34,5 ming rubl mablag'lar musodara qilingan, shu jumladan faqat 2023-yilning o'zida 3,7 mlrd so'm va 87,3 ming dollar

musodara qilindi. Korrupsiya jinoyatlari tarkibiga ko'ra, 2023-yilda ham eng ko'pi budjet mablag'larini talon-toraj qilish (o'zlashtirish) va pora olish-berish holatlariga to'g'ri keldi.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar va ular bo'yicha sudlangan shaxslar soni yil sayin oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilning birinchi yarmida korrupsiyaviy jinoyatlari uchun 3837 nafar shaxs sudlangan, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 5,5% ga ko'pdir. Korrupsiya eng ko'p uchragan tarmoqlar sifatida ta'lim (xususan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida 285 ta holat, o'tgan yilga nisbatan +20%) va mahalliy hokimliklar (133 ta holat, +11%) qayd etilgan [7].

Bundan tashqari, davlat ulushi bo'lgan korxonalarda 153 ta korrupsiya holati aniqlangan (bu avvalgi yilga nisbatan keskin o'sishdir). Shu bilan birga, ayrim sohalarida kamayish kuzatilgan: masalan, tijorat banklarida 146 holat (o'tgan yilda 186 edi), sog'liqni saqlash tizimida 145 holat (177 edi), huquqni muhofaza organlarida 122 holat (128 edi) – bu sohalarida ichki nazorat yaxshilangani natijasida ma'lum pasayishga erishilganligi aytilmoqda [7].

Ushbu statistik raqamlar, bir tomondan, huquqni muhofaza organlari faoliyati samaradorligini, ikkinchi tomondan esa, korrupsiyaning hali-hamon salmoqli miqyosda mavjudligini ko'rsatadi. Davlatimiz bu raqamlarni pasaytirish maqsadida tinimsiz ish olib bormoqda.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish"ga [8] qaratilgan muhim vazifalar belgilangan.

Davlat hokimiyatiga, davlat manfaatlariga tajovuz qilish, boshqacha aytganda, hokimiyatning normal ish olib borishi va boshqarilishiga qarshi jinoyatlar fuqarolarga jismoniy va ma'naviy, mulkiy zarar yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy va boshqa huquqlarini buzish, jamiyat va davlat manfaatlariga ziyon yetkazishda ifodalanadi. Bu esa, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning sodir etilishidagi qo'shimcha va fakultativ obyektlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi[9].

Ushbu turdagi jinoyatning bevosita obyekti davlat hokimiyati, boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisoblanadi [9–10].

Davlat hokimiyatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar guruhining o'ziga xos jihati shundaki, ularning sodir etilishi mansabdor shaxsning aynan xizmat mavqe bilan bog'liq bo'lib, shaxs o'z xizmat vakolatlarini va unga nisbatan bildirilgan ishonchni qasddan suiiste'mol qilgan holda yoki aynan shu xizmat holati tufayli, ammo davlat xizmati manfaatlariga zarar yetkazish orqali amalga oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu turdagi jinoyatlar mansab vakolatlaridan foydalanish orqali yoki xizmat mavqeiga zid ravishda harakat qilish orqali sodir etiladi va bunda asosiy zarar – davlat va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining qonuniy, samarali va jamiyat ishonchini qozongan holda amalga oshirish jarayoniga yetkaziladi.

B.K.Xudaybergenov mazkur jinoiy qilmishlar davlat organlarining nufuziga putur yetkazib, jamiyatdagi tenglik va adolat tamoyillarini buzadi, degan fikrni bildiradi [11].

Umuman olganda, ushbu jinoyatlar guruhiga xos bo'lgan quyidagi ikki asosiy xususiyatni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) jinoyatlar xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etiladi – aybdor shaxs o'zining rasmiy vakolatlari va lavozimi orqali berilgan imkoniyatlardan jinoiy maqsadda foydalanadi;

2) jinoyatlar xizmat manfaatlariga zid ravishda

amalga oshiriladi va ularga zarar yetkazadi – aybdor shaxsning harakatlari davlat yoki munit-sipal xizmatning qonuniy va normal faoliyatiga, shuningdek ularning nufuzi va manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, mazkur turdagi jinoyatlar faqatgina shaxsning maxsus xizmat maqomiga ega ekani tufayli amalga oshishi mumkin bo'lib, ular davlat xizmatining manfaatlarini, organlar faoliyatining samaradorligi va jamiyatning davlatga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada buzadi yoki so'ndirib yuborishga xizmat qiladi. Bu esa ushbu jinoyatlarni umumiy huquqbuzarliklardan tubdan farq qiluvchi alohida ijtimoiy xavfli toifa sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Bir qator olimlarning ta'kidlashicha [12], korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan boshqa mansabdorlik jinoyatlaridan ajratib turadigan asosiy belgi – bu qilmishning ayblanuvchining xizmat vazifalari bilan bevosita bog'liq holda amalga oshirilishidadir. Shu ma'noda, bunday jinoyatlarda obyektiv tomonning zaruriy belgilaridan biri sifatida harakat yoki harakatsizlik ayblanuvchi zimmasidagi xizmat majburiyatlarini bajarish yoki bajarmaslik natijasida yuzaga kelishi alohida ahamiyatga ega. Bu belgi korrupsion jinoyatlarning huquqiy tabiati va boshqa mansabdorlik jinoyatlaridan farqini aniqlashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Tadqiqot doirasida tahlil qilingan jinoyat ishlarining ko'pchiligida ham sud hukmida aynan shu holat, ya'ni qilmishning xizmat burchi bilan bog'liq ekani qayd etiladi, chunki bu kabi harakatlar qonun bilan belgilangan boshqaruv, xo'jalik yoki boshqa faoliyat turlarining samarali amalga oshirishini jiddiy ravishda qiyinlashtiradi, davlat yoki jamoat apparatining tegishli sohalarida normal faoliyatni izdan chiqaradi. Shu sababli, xizmat majburiyatlarini buzgan holda sodir etilgan harakat korrupsion jinoyat tarkibining asosiy, farqlovchi belgisi sifatida ko'riladi.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish deyarli barcha korrupsiyaviy jinoyatlar obyektiv tomonining bosh elementi hisoblanadi.

Zotan, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoiy xulq-atvorning, avvalo, mansabdor shaxs tomonidan o'z mansab vakolatlaridan xizmat manfaatlariga zid ravishda foydalanishida ifodalanadigan eng umumiy shaklidir.

Ye.A.Plastinina ta'kidlaganidek, ayrim holatlarda shaxsning jinoiy harakatlari xizmat yo'riq-nomasi doirasida amalga oshiriladi, biroq ular mazmunan shaxsiy manfaatni ko'zlab, xizmat manfaatlariga zid ravishda yuritiladi [15]. Shu nuqtayi nazardan, "mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish" tushunchasi yuridik jihatdan faqat tashqi shakllarga emas, balki harakatning mazmun va maqsadlariga ham bog'liq holda baholanishi lozim. Formal jihatdan xizmat vazifalarini bajarayotgan shaxs, agar o'z harakatlari orqali davlat, jamiyat yoki fuqarolar manfaatlariga zarar yetkazsa, u holda mazkur harakat jinoyat tarkibini tashkil qilishi mumkin.

Mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish deganda shunday qilmishlar tushuniladiki, ular tashqi jihatdan shaxsning xizmat vakolatlari va majburiyatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq holda, aslida xizmat zarurati bilan asoslanmagan hamda ob'yektiv jihatdan tashkilot oldiga qo'yilgan umumiy vazifalar va talablarga, shuningdek, shaxsga yuklatilgan mansab vakolatlari orqali erishilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalarga zid ravishda amalga oshiriladi [16]. Boshqacha aytganda, suiiste'mol qilingan harakat yoki harakatsizlik shaxsning rasmiy vazifalari bilan formal bog'liq bo'lsada, uning mohiyati xizmat faoliyatining qonuniy va maqsadga muvofiq tamoyillarini buzadi. Bu esa bevosita davlat boshqaruvi, idoraviy intizom va jamoat manfaatlariga ziyon yetkazuvchi omil sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, Ye.A. Plastininaning fikricha, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishda asosiy motiv sifatida manfaatdorlik yotadi, ya'ni moddiy yoki boshqa turdagi shaxsiy manfaatdorlik namoyon bo'ladi. Korrupsiyalashgan xatti-harakatlar, avvalo, mansabdor shaxsning moddiy boyliklarga ega bo'lish yoki mavjud moddiy majburiyatlardan qochish (masalan, qandaydir qarzni qaytarishdan bosh tortish) kabi maqsadlarga

erishishga qaratilgan bo'lishi mumkin [15]. Boshqacha aytganda, mansabdor shaxs o'z xizmat vakolatlaridan foydalanib, moddiy tabiatga ega bo'lgan foydani qo'lga kiritishga intiladi; bu foyda ayni shaxsning o'ziga emas, boshqa shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, bunday jinoyatlar sodir etilishida shaxsiy qiziqishlar faqat moddiy emas, balki nomoddiy xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. Xususan, subyekt o'z harakatlari orqali rahbariyatning e'tiborini qozonish, xizmat pog'onalarida yuqorilash, yaqinlariga yordam ko'rsatish yoki ijtimoiy munosabatlarda o'zi uchun qulay sharoitlar yaratish kabi maqsadlarni ko'zlashi mumkin. Demak, manfaatdorlik korrupsion jinoyatlarning asosiy ijtimoiy-psixologik omili sifatida namoyon bo'lib, uning moddiy va nomoddiy ko'rinishlari xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, har qanday xizmat mavqeidan foydalanish holatini korrupsiya deb baholab bo'lmaydi. Chunki mansab mavqeidan foydalanish – jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazish maqsadida ham, shuningdek, aynan shu manfaatlarni ko'zlab amalga oshirilishi ham mumkin. Kundalik hayotda hokimiyat vakolatlaridan foydalanishning o'nlab misollari kuzatiladi. Masalan, mahalliy ishlab chiqaruvchini himoya qilish uchun yuqori boj to'lovlarini joriy etish, milliy avtomobilsozlik sohasini qutqarish uchun katta miqdorda mablag' yo'naltirish, chet el harbiy texnikasini sotib olish, aybdorligi ravshan bo'lgan shaxsni yetarlicha dalillar bo'lmasada javobgarlikka tortish, tanlov shartlarini mahalliy ishlab chiqaruvchi manfaatlariga mos ravishda shakllantirish, tabiiy yoki texnogen halokatlardan jabrlangan shaxslarga rasmiy ruxsatnomalar bo'lmagan holda moddiy yordam ko'rsatish yoki shaxsni tezkor ravishda shifoxonaga olib borish uchun xizmat avtomashinasidan foydalanish kabi holatlar formal jihatdan xizmat mavqeidan foydalanish sifatida baholanishi mumkin. Biroq shunday bo'lsa-da, ushbu qarorlar va harakatlarning aksariyati oxir-oqibatda jamiyat manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan.

Shu bois “korruptsiya” tushunchasini baholashda yagona yuridik mezonlarga, ya’ni shaxsiy manfaatdorlik, qasddan sodir etish va xizmat manfaatlariga zid harakatlar bo’lishi kabi asosiy belgilarga tayanish zarur [17]. Bu esa korruptsiya bilan bog’liq jinoyatlarni boshqa huquqbuzarliklardan aniq farqlash imkonini beradi.

“Xizmat mavqei” va “mansab vakolatlari” tushunchalari o’zaro bog’liq bo’lsa-da, ularning huquqiy mohiyati va mazmuni bir-biridan farq qiladi. Bu farqni to’g’ri anglash jinoiy-huquqiy kvalifikatsiyada, ayniqsa, korruptsiyaviy jinoyatlarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat mavqei (служебное положение) mansabdor shaxsning muayyan tashkilotda egalab turgan lavozimi, rasmiy statusi, ijtimoiy-huquqiy maqomi bilan bog’liq bo’lib, u shaxsning tashkilotdagi umumiy nufuzi, resurslarga kirish imkoniyati, idoraviy itoat tizimidagi o’rnini anglatadi. Ya’ni, xizmat mavqei – bu subyektiga o’z vakolatlarini amalga oshirish uchun yaratib berilgan umumiy institutsional va idoraviy imkoniyatlar majmui.

Mansab vakolatlari (должностные полномочия) esa shaxsga qonun, farmon, ichki me’yoriy hujjatlar, lavozim yo’riqnomasi orqali aniq berilgan huquq va majburiyatlar majmuasi bo’lib, ularni amalga oshirish xizmat vazifasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mansab vakolatlari – shaxsning amaliy faoliyatda bajarishi shart bo’lgan vazifalar, qabul qilish vakolatiga ega bo’lgan qarorlar, nazorat funksiyalari kabi yuridik jihatdan tartibga solingan harakatlar doirasi.

“Xizmat mavqei” va “mansab vakolatlari” tushunchalari o’zaro bog’liq bo’lsada, ularning huquqiy mohiyati va mazmunini ajratish korruptsiyaviy jinoyatlarni to’g’ri kvalifikatsiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xizmat mavqei – bu shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy maqomi, tashkilotdagi rasmiy statusi, uning qo’li ostidagi resurslar, boshqaruv tizimidagi o’rni va ta’sir darajasi bilan belgilanadi. U ayni paytda shaxsga tegishli vakolatlarni amalga oshirish uchun yaratilgan institutsional muhit va imkoniyatlar majmuasi sifatida namoyon bo’ladi.

Mansab vakolatlari esa qonun, farmon, ichki me’yoriy hujjatlar va lavozim yo’riqnomalari asosida shaxsga berilgan aniq huquq va majburiyatlar majmuasini anglatadi. Ular fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat va jamoat manfaatlari bilan bog’liq holda amalga oshirilishi lozim bo’lgan qonunan belgilangan faoliyat doirasini qamrab oladi. Shuning uchun ham korruptsiyaviy jinoyatlarni kvalifikatsiyalashda “xizmat mavqei” – subyektiv asos, “mansab vakolatlari” esa – yuridik funksiyalarni amalga oshirishga oid obyektiv mezon sifatida qaralishi lozim.

BMTning 2003-yilda qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi konvensiyasida “xizmat mavqeidan suiiste’mol qilish” (abuse of functions / abuse of office) tushunchasi huquqiy jazoga tortilishi lozim bo’lgan xatti-harakat sifatida talqin qilinadi. Konvensiyaning 18-moddasiga muvofiq, mansabdor shaxsga bevosita yoki vositachi orqali har qanday noqonuniy manfaat va’da qilish, taklif etish yoki berish, uning xizmat mavqeidan foydalanib davlat organi yoki boshqa tuzilmalardan noqonuniy imtiyoz olishiga ko’maklashish maqsadida amalga oshirilsa, bunday xatti-harakat jinoyat hisoblanadi [1].

BMT Konvensiyasi doirasida xizmat intizomi, axloq va etikaga oid buzilishlar faqatgina ular qonun bilan belgilangan javobgarlikka asos bo’lsa, jinoiy harakat sifatida baholanadi. Demak, xalqaro huquqiy yondashuvga ko’ra, xizmat mavqeidan foydalanish jinoyatining mohiyati – amaldagi huquqiy normalarni buzish orqali shaxsiy manfaat ko’zlashda mujassamlashadi.

A.I.Mizerii ta’kidlaganidek, “xizmat manfaatlariga zid ravishda harakat qilish” belgisi – formal intizom buzilishi emas, balki manfaatlariga yetkazilgan zararining noqonuniy va asossizligini anglatadi. Ushbu nuqtayi nazar korruptsiyaviy jinoyatlarni jinoiy-huquqiy kvalifikatsiyalashda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Biroq, amaliyot shuni ko’rsatmoqdaki, ayrim holatlarda xizmat intizomidan asosli chetga chiqish, masalan, kengroq ijtimoiy manfaatni ko’zlab qabul qilingan qaror jinoiy oqibatlariga olib kelmasligi kerak [18]. Olimning fikricha, Rossiya Federat-

siyasi Jinoyat kodeksidagi (41-modda) jinoyat tarkibini istisno etuvchi holat sifatida “asoslangan tavakkalchilik” normasi mansabdor shaxs o‘z xizmat vakolatlari va qoidalaridan aniq va asosli sabablarga ko‘ra chetga chiqqan, masalan, kattaroq zararining oldini olish maqsadida harakat qilgan hollarda, uning harakatlarini huquqiy jihatdan oqlaydi. Demak, “xizmat manfaatlariga zid ravishda” degan belgini to‘g‘ri anglash uchun, birinchi navbatda, qonunbuzarlik emas, balki qonun doirasidagi asosli chetga chiqish ehtimolini ham hisobga olish zarur[18].

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham BMTning ushbu talablarini inobatga olgan holda qonunchilikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Amaldagi Jinoyat kodeksi va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni keng qamrab olgan bo‘lib, ularni sodir etishda shaxsiy yoki uchinchi shaxslar manfaatiga moddiy yoki mulkiy foyda olish maqsadi asosiy subyektiv belgilar sifatida belgilangan.

Demak, korrupsiyaga oid jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiyalashda “xizmat mavqe” va “mansab vakolatlari” tushunchalarini farqlash, manfaatdorlik va g‘arazgo‘ylik belgilarini xolis tahlil qilish, shuningdek, xizmat intizomidan ajralib turuvchi jinoiy harakatlarni aniqlash – huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ham nazariy va ham amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularning sodir etilishi har doim ham aniq moddiy zarar bilan namoyon bo‘lmaydi. Ayrim holatlarda xizmat majburiyatlarining buzilishi bir qarashda formal ko‘rinishda, masalan, muayyan qaror qabul qilishda manfaatlar to‘qnashuvi holati, xizmat yo‘l-yo‘riqlarining chetlab o‘tilishi orqali ifodalanadi. Bunday holatlarda zararining “asossizligi”ni aniqlash ancha murakkab bo‘ladi. Ammo shunday qilib ham jamoatchilik ishonchiga putur yetishi, adolat tamoyili buzilishi va davlat organlarining obro‘sigasalbiy ta‘sir ko‘rsatilishi mumkin.

Boshqa tomondan, korrupsiyaning “ko‘zga ko‘rinmas” ta‘siri – ishonchsizlik muhiti, fuqarolik passivligi, kadrlar tanlovida shaffoflikning yo‘qolishi kabi oqibatlar ham “asossiz zarar” tushunchasiga sig‘masligi mumkin. Ammo bu holatlar jinoiy-huquqiy nuqtayi nazardan jiddiy ijtimoiy xavf tug‘diradi.

Shu bois, A.I.Mizerii tomonidan taklif qilingan huquqiy me‘yordagi tanlov mezonlarining aniqlashtirilishi, albatta, axloqiy va qonuniy kriteriyalar bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi lozim. Har qanday xizmat intizomini buzish jinoiy javobgarlikka olib kelmasligi lozim – bu to‘g‘ri. Ammo korrupsiya bilan bog‘liq harakatlar – hatto ular moddiy zarar yetkazmagan hollarda ham – davlat xizmati tabiatiga zid bo‘lib, jinoiy-huquqiy baholashni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, xizmat manfaatlariga zid harakatni baholashda nafaqat huquqiy formalizm, balki korrupsiyaga qarshi kurashishning keng qamrovli, institutsional va profilaktik mexanizmlari ham inobatga olinishi zarur. Zero, korrupsiya jinoyatlari qonun buzilishi bilan bir qatorda, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch aloqalariga putur yetkazuvchi strategik tahdiddir. Demak, xizmat manfaatlariga yetkazilgan zararni baholashda faqat moddiy o‘lchovlar emas, balki davlat boshqaruvining ma‘naviy va etik qadriyatlar ham hisobga olinishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy yondashuvlari xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMTning 2003-yilgi Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablari bilan muvofiq bo‘lishi lozim. Ushbu xalqaro hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirokchi davlatlarning birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish va milliy qonunchilikda korrupsiyaning asosiy turlarini – mansab vakolatlariidan suiiste‘mol qilish, “ta‘sir vositasida” suiiste‘mol qilish, pora olish va berish, tijoratda poraxo‘rlik hamda boshqa tegishli harakatlarni qamrab olishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston mazkur xalqaro konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan holda, o‘z milliy qonunchiligida mazkur tavsiyalarga muvofiq ravishda korrup-

siyaga oid jinoyatlarni va ular bilan bog'liq boshqa huquqbuzarliklarni (jumladan, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni yuvish, jinoiy mulkni yashirish va h.k.) qamrab olgan normalarni shakllantirgan. Bu jinoyatlar, asosan, moddiy yoki mulkiy manfaatni qo'lga kiritishga, ya'ni noqonuniy bo'yishga qaratilgan bo'lib, ularning subyektiv tomoni shaxsiy manfaatdorlik, g'arazgo'ylik va shaxsiy yoki uchinchi shaxslar foydasiga mulkiy manfaatlar olish istagi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi korrupsiyaga qarshi qonunchiligida ham korrupsiyaviy huquqbuzarliklar "o'z shaxsi yoki uchinchi shaxslar manfaati uchun pul, qimmatbaho narsalar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy tabiatga ega xizmatlar, mulkiy huquqlar ko'rinishida foyda olish maqsadida sodir etiladigan harakatlar" sifatida tavsiflanadi. Bunda shaxsiy manfaatdorlik tushunchasi – davlat va mahalliy hokimiyat organlari xodimlari tomonidan xizmat burchlarini bajarish jarayonida o'zlariga yoki boshqa shaxslarga mulkiy va nomulkiy foyda olish imkoniyatini nazarda tutadi. Agar moddiy foyda aybdorning o'ziga nasib etsa, jinoyatning motivi g'arazgo'ylik hisoblanadi; agar mazkur foyda uchinchi shaxslar foydasiga olib berilsa, bunda shaxsiy manfaatdorlik keng ma'noda tushuniladi.

Mansab vakolatlaridan foydalanishdagi suiiste'mol holatlarini huquqiy baholashda subyektning ichki psixik holatini ifodalovchi subyektiv belgilari – motiv (harakat turtkisi) va maqsad (harakat natijasini irodaviy istash) muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqib, xalqaro huquqiy amaliyotda mazkur elementlarga bo'lgan yondashuvlarda jiddiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular hududiy huquqiy an'analar va fuqarolik jamiyati rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiyaviy jinoyatlar bilan bog'liq normalarni takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar asosli sanaladi:

1. Huquqiy kategoriyalarning aniqligi va bir ma'noliligini ta'minlash. Jinoyat tarkibiga doir tushunchalar – "xizmat manfaatlariga zid",

"mansab vakolati doirasidan chetga chiqish", "xizmat mavqeidan foydalanish" kabi ifodalar huquqiy-me'yoriy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqilib, ularga aniq va cheklangan ta'riflar berilishi zarur. Bu, o'z navbatida, huquqni qo'llash amaliyotida huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

2. Korrupsion harakatlarning subyektiv belgilarini aniqlashning usul va mezonlarini ishlab chiqish. Har qanday korrupsion jinoyat subyektiv tomoni, ya'ni shaxsiy manfaatdorlik, g'arazgo'ylik, uchinchi shaxs foydasi uchun harakat qilish kabi ruhiy holatlar bilan ajralib turadi. Sud-tergov amaliyotida bu belgilarni aniqlash uchun maxsus uslubiy ko'rsatmalar, ekspert xulosalari, majburiy ravishda dalillashtirish talablari ishlab chiqilishi zarur.

3. Jinoyat tarkibining differensiatsiyasini ta'minlash. Korrupsion jinoyatlar turli vaziyatlarda, turli darajadagi ijtimoiy xavf bilan sodir etilishi mumkin. Shu sababli ular uchun belgilanadigan javobgarlik choralari ham bir xillashtirilgan emas, balki individuallashtirilgan bo'lishi kerak. Jazo turlari va miqdorlari ijtimoiy xavf darajasiga, keltirilgan zararga, motivga va boshqa holatlarga ko'ra farqlanishi zarur.

4. Korrupsiyaga qarshi profilaktik mexanizmlar va xizmat intizomi o'rtasidagi chegaralarni aniqlash. Xizmat intizomiga oid har bir qoida buzilish holati jinoyat sifatida baholanmasligi kerak. Shu maqsadda, profilaktika, ichki xizmat tekshiruvlari, intizomiy choralar va jinoiy javobgarlik o'rtasidagi me'yoriy chegaralar aniq belgilab qo'yilishi, qonunchilikda bu masala yuridik nuqtayi nazardan ifodalanishi lozim.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash, ayniqsa boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasida jinoiy-huquqiy vositalar samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi qonunchilikda korrupsion jinoyatlarni belgilashda ayrim tushunchalarning noaniqligi, huquqni qo'llash amaliyotida bir xil emasligi va qonun norma-

laridagi murakkabliklar sud-tergov jarayonlarida turli talqinlarga olib kelmoqda.

Jumladan, “xizmat mavqei” va “mansab vakolatlari” tushunchalari o’rtasidagi huquqiy chegaralarning noaniqligi, “suiiste’mol qilish”, “jiddiy zarar” va “shaxsiy manfaatdorlik” tushunchalarining aniq ta’rifga ega emasligi huquqiy kvalifikatsiyada muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, korrupsiyaviy xatti-harakatlarning subyektiv tomoni, ayniqsa, moddiy va nomoddiy manfaatdorlikning huquqiy bahosi, amaliyotda yetarli darajada asoslanmagan holda dalillanishi jinoyat tarkibining aniq belgilanishini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, xizmat intizomini buzish va jinoiy javobgarlik o’rtasidagi chegara yetarli darajada aniq belgilanmagan. Bu esa ba’zi hollarda ma’muriy-huquqiy munosabatlar bilan bog’liq xatti-harakatlarni jinoiy tartibda baholashga olib kelishi mumkin.

Xalqaro standartlar, xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida belgilangan mezonlardan kelib chiqib, milliy qonunchilikda “asossiz zarar”, “huquqiy asoslangan tavakkalchilik”, “shaxsiy yoki uchinchi shaxs manfaati” kabi tushunchalarga aniq huquqiy yo’nalish berilmagan. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligi, fuqarolarning davlatga bo’lgan ishonchi va adolat prinsiplarini ta’minlash nuqtayi nazaridan salbiy oqibatlariga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korrupsiyaviy jinoyatlarning huquqiy ta’rifi, ularning tarkibiy elementlari, mansab vakolatlari va xizmat mavqeining o’zaro munosabati, subyektiv tomonning maxsus belgilari bo’yicha konseptual va normativ aniqlikni ta’minlash, ushbu toifadagi jinoyatlarga nisbatan javobgarlik choralari individuallash-tirish hamda xizmat intizomi va jinoiy javobgarlik o’rtasida aniq huquqiy me’yorlarni belgilash davr talabidir.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008-y., 3-4-son // 31.10.2003. Korrupsiyaga qarshi.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son // PQ-3723-son 14.05.2018. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. aljazeera.com; <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>.
4. <https://africa24tv.com/africa-corruption-nearly-25-of-gdp-lost-yearly#:~:text=According%20to%20data%20from%20the,be%20activated%2C%20according%20to%20scientists>.
5. Corruption undermines human rights and the rule of law // coe.int.
6. qalampir.uz.
7. В Узбекистане число осужденных за коррупцию выросло на 5,5% // kun.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // www.lex.uz.
9. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 3 tomlik. Maxsus qism. T.2. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024.
10. См.: Уголовное право России. Особенная часть: Учебник / Отв. ред. докт. юрид. наук, проф. Б.В. Здравомыслов. – М.: Юристъ, 1996. – С. 385.
11. Худайберганов Б.К. Борьба с коррупцией: международно-правовые основы и роль национального законодательства: Дис. ... магистра права: 5A240116 – теория и практика применения уголовного законодательства / Б. К. Худайберганов; науч. рук. А.А.Мирзаев. – Ташкент, 2018. – 96 с.
12. Алланов С.А. Описание коррупционных преступлений в соответствии с уголовным законодательством Республики Узбекистан // Юридические науки. – 2020. – № 6 (107). – С. 31–34. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opisanie-korrupcionnyh-prestupleniy-v-sootvetstvii-s-ugolovnym-zakonodatelstvom-respubliki-uzbekistan> (дата обращения: 22.04.2025).
13. Бугаевская Н.В. К вопросу о соотношении служебных и коррупционных преступлений // Известия ТулГУ. – 2018. – №1(95). – С. 95–101.
14. Фахриев М.М. Квалификация преступлений, связанных со злоупотреблением должностными полномочиями и вопросы их предупреждения // Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева. – 2018. – № 3, том 1. – С. 179–190.
15. Пластинина Е.А. Виды коррупционных преступлений и ответственность за них: анализ и практика // Юридический вестник. – 2011. – № 1 (11). – URL: <http://www.jurvestnik.psu.ru/index.php/vypusk-1-11-2011/8-2010-12-01-13-31-58/-1-11-2011/166-vidy-korrupczionnyx-prestuplenij-i-otvetstvennost-za-nix-analiz-i-praktika> (дата обращения: 30.03.2025).
16. О судебной практике по делам о злоупотреблении должностными полномочиями и превышении должностных полномочий: постановление Пленума Верховного Суда РФ от 16.10.2009 № 19 // Российская газета. – 2009. – 30 октября. – № 207.
17. Рахметов С.М. О ходе имплементации норм международных конвенций по вопросам борьбы с коррупцией в уголовное законодательство Республики Казахстан // Вестник Института законодательства Республики Казахстан. – 2017. – № 2 (47). – С. 103–109.
18. Мизерии А.И. Уголовно-правовые и криминологические аспекты борьбы с коррупцией в органах власти: Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.08. – Нижний Новгород, 2000. – 275 с.